

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XURRAMOVA MOHIDIL BAXTIYOROVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI
OSHIRISH JARAYONIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xurramova Mohidil Baxtiyorovna

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 3

Хуррамова Моҳидил Бахтиёровна

Совершенствование методики развития рефлексивных навыков будущих учителей в процессе повышения их педагогического мастерства..... 21

Xurramova Mohidil Baxtiyorovna

Improving the methodology of developing the reflexive skills of future teachers in the process of improving their pedagogical skills..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XURRAMOVA MOHIDIL BAXTIYOROVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI
OSHIRISH JARAYONIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8364 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi – www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali – www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Normurodova Nigora Abdusattorovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmonova Umida Aybekovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Boboyorov Shuxrat Suvonqulovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “___” “_____” kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871)276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871)276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil __ _____ da tarqatildi.

(2025 yil “_____” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim global muammolardan biri sifatida bo'lajak o'qituvchilarning metakognitiv va refleksiv salohiyatini oshirishga doir innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash hamda kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash modellari YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" birinchi darajali vazifa sifatida qaralib, ta'lim mazmunini mazkur jarayonlarga asoslanib shakllantirish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalaridan Buyuk Britaniyaning "Oxford", AQSHning Harvard, Avstraliyaning "Melburn", Finlandiyaning "Helsin" universitetlari va ko'plab xorijiy OTM ham bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimlari orqali pedagogik qobiliyatni rivojlantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini ishlab chiqish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy sifatlarini intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirish, kasbga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni doimiy o'zgarib borayotgan ta'lim talablariga moslasha oladigan, reflektiv tafakkurga ega mutaxassislar sifatida tayyorlash, komretent mutaxassis va raqobatbardosh kadrlar tauuorlashning huquqiy meuriu asoslari uaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini uanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviu ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning redagogik mexanizmlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabr O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni.

ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022 yil 21-iyundagi RQ-289-son "Pedagogik talim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizdan A.A.Xalikov, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, Sh.Shodmonovalar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratni oshirish; F.Sh.Vapayeva, Sh.A.Donayeva, N.R.Karimova, J.M.Otajonov, Z.Sh.Qarshiyeva, D.Hakimova tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlarida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari I.G.Bessonova, A.A.Bexoeva, B.Z.Vulfov, P.Ya.Galperin, V.K.Eliseev, G.M.Kodjaspirova, V.I.Slobodchikov, L.B.Sabitova, G.S.Suxobskaya, T.F.Usheva, M.A.Loparyova, Y.V.Yakovleva, S.S.Shekinalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Ta'lim jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari xorijiy olimlardan Paula Zwozdiak-Myersning, Rezze Fatwassa, J.Kaywork, H.J.Lee, D'Cruz Heather, Asma Mansour Almusharraf, W.Jey, K.L.Jonson, M.Watts, M.Lawson, F.Yansen, du Hullu, D.Tigelaar, M.Mahlios, G.Soroka, D.Enstrom, D.M.Shaw, M.Vick ishlarida tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti. bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni bo'lib, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika institutlaridan 313 nafar talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari moslashuvchan tafakkur, tez o'zgaruvchi sharoitlar va tashabbuskorlikning uzluksiz o'sishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik kompetentligini o'z-o'zida tarbiyalashning ratsionalligini reflektiv ko'nikmalar mazmuniga idientiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish modeli virtual ta'lim va guruhli muhokama vositalaridan foydalanish natijadorligini oshirish, mentorlik va individual maslahatlar xizmatini intensivlashtirish hamda ta'limiy maqsadlarga mos konkurslar, taqdimotlar, kollaborativ o'rganishlar tashkil etish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ijodiy yondashuvni faollashtirish, verbal va noverbal vositalarning integrativ xususiyatlarini pedagogik yaxlitlash hamda subekt-subekt munosabatlari qayta aloqasini barqaror ta'minlashga qaratilgan faol mikromuhit yaratish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi ta'lim maqsadlarining produktiv natijadorligini ta'minlovchi pedagogik infratuzilmani ta'minlash hamda didaktik imkoniyatlarini o'z-o'zini faollashtirish, nazorat qilish va boshqarishning tuzilmaviy mazmuniga ratsional moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan;

“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan “Pedagogik mahorat” fanidan o'quv qo'llanma nashr etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 27-dekabrda 5/4.1-sonli qarori);

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga pedagogik va psixologik,

metodik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi, o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari, jihatlari, pedagogik shart-sharoitlari o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti hamda ishlab chiqilgan modeldan oliy ta'lim muassasalari uchun darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari moslashuvchan tafakkur, tez o'zgaruvchi sharoitlar va tashabbuskorlikning uzluksiz o'sishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik kompetentligini o'z-o'zida tarbiyalashning ratsionalligini refleksiv ko'nikmalar mazmuniga idientiv moslashtirishga oid takliflar "Pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 3-maydagi 11-05-2831/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini o'rnini ko'rsatishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish modeli virtual ta'lim va guruhli muhokama vositalaridan foydalanish natijadorligini oshirish, mentorlik va individual maslahatlar xizmatini intensivlashtirish hamda ta'limiy maqsadlarga mos konkurslar, taqdimotlar, kollaborativ o'rganishlar tashkil etish asosida takomillashtirishga oid takliflar asosida "Pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 3-maydagi 11-05-2831/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash imkoni oshirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ijodiy yondashuvni faollashtirish, verbal va noverbal vositalarning integrativ xususiyatlarini pedagogik yaxlitlash hamda subekt-subekt munosabatlari qayta aloqasini barqaror ta'minlashga qaratilgan faol mikromuhit yaratish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar asosida "Pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 3-maydagi 11-05-2831/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini

rivojlantirish jarayonini bosharishda kasbiy refleksiyaning imkoniyatini o'rganish samaradorligi ortgan;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi ta'lim maqsadlarining produktiv natijadorligini ta'minlovchi pedagogik infratuzilmani ta'minlash hamda didaktik imkoniyatlarini o'z-o'zini faollashtirish, nazorat qilish va boshqarishning tuzilmaviy mazmuniga ratsional moslashtirish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 3-maydagi 11-05-2831/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik sharoitlarini takomillashtirish imkoni oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi va ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari**" deb nomlanib, bu bobida Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, "Reflektiv ko'nikmalar"ni rivojlantirish tushunchasining pedagogik va psixologik xususiyatlari, Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari bayon qilingan.

Ta'lim jarayonining zamonaviy rivojlanish sharoitida pedagogik mahoratning yangi talablarga moslashishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik ko'nikmalarni, shu jumladan, reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati alohida e'tiborga olinadi. Pedagogik refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarga baho berish va ulardan xulosa chiqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar

o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishini ta'minlashda, o'z pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik kuzatuvlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik ta'lim tizimining muhim qismlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda, ularga o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi metodikalar asosiy o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra ta'lim tizimida pedagogik mahoratni oshirish uchun innovatsion metodik yondashuvlar, shu jumladan, reflektiv pedagogik metodlarni qo'llash ustuvor hisoblanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning samarali o'qitish qobiliyatlarini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatini doimiy ravishda yaxshilash istagini uyg'otadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizning bosh g'oyasi – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligini quyidagilar bilan asoslaymiz:

Pedagogik mahoratning ahamiyati. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning kasbiy malakalarini yuqori darajaga olib chiqish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagogik mahoratga yondashuv nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki talabalarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularda ilmga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Reflektiv ko'nikmalarning roli. Refleksiya — bu bo'lajak o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash, xatolarni aniqlash va o'zini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonidir. Bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish orqali o'z metodikasini yaxshilash va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Innovatsion pedagogik metodlar. Hozirgi kunda ta'limda yangi pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilar kelajakdagi kasbiy faoliyatida yangi metodlarni samarali qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshiradi va o'qituvchilarning muvaffaqiyatini yaxshilaydi.

Ta'lim sifatining oshishi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish va refleksiya orqali ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal etish imkoniyati oshadi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kasbiy rivojlanish va yangi yondashuvlar. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishda reflektiv metodikasini takomillashtirish, ularni kasbiy rivojlanishga undashda muhim o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchining o'zini tahlil qilish va yangiliklarga ochiq bo'lishi uning pedagogik samaradorligini oshiradi.

Sh.A.Donayeva tadqiqotlarida reflektiv ta'lim texnologiyalari asosida talabalar pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi. Muallif ilmiy izlanishlari natijasida talabalarning pedagogik ta'lim jarayonida reflektiv ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari vaqt davomiyligiga ko'ra (situativ, retrospektiv, perspektiv), subektiga ko'ra (shaxsiy, shaxslararo), maqsadiga ko'ra (korreksion, adaptiv, tanlov, to'ldiruvchi,

raqobatlashuvchi, kooperativ, ziddiyatli) turlari mazmunini ochib berish asosida aniqlashtirilgan. Bu pedagogik ta'lim jarayonida foydalaniladigan refleksiv metodikalar mazmuni dars mashg'ulotlarida umumlashtirish, tanqidiy tahlil, o'z-o'zini taftish qilish, o'z-o'zini baholash, tasavvur, obektiv xulosa chiqarish, qisqa muddatli strategiyani belgilash kabi qator psixologik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan intellektual harakatlardan foydalanishning pedagogik-psixologik aspektlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirish imkonini bergan.

N.R.Karimova tadqiqotlarida kichik maktab yoshi o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishning metodik ta'minoti o'quv faoliyatiga doir amaliy ishlanmalar vositasida loyihalashtirilgan o'qitish jarayonlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan; o'yin ta'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish modeli motivatsion, kognitiv, faoliyatli va natijaviy komponentlarining didaktik imkoniyatlarni tizimlashtirish hamda o'qitishning individual shakliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

J.M.Otajonov bir necha yillik izlanishlari natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishni modellashtirish jarayonida sub'ekt (ta'limiy muhitning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va ishtirokchisi) refleksiv ko'nikmalarining funksiyalari (boshqaruv, o'qitish, nazoratni amalga oshirish, kommunikativ, axborot) didaktik maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) identiv xususiyatlarga ko'ra integratsiyalash asosida takomillashtirishga erishgan. Muallif refleksiv ko'nikmalarni baholash mezonlari (pedagogik-refleksiv qobiliyatga ega bo'lish, refleksiv fikrlay olish, mustaqil fikrlay olish)ni aniqlashtirish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining motivatsion, hissiy-emotsional, kommunikativ rivojlanish darajalarini oshirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirgan. Ko'rinadiki, J.M.Otajonovning ilmiy tadqiqoti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoniga oid muhim yondashuvlarni taklif etadi. Tadqiqotning ahamiyati, o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodlarni yanada chuqurlashtirish, o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berish imkoniyatlarini yaratish, refleksiv ko'nikmalarni modellashtirish orqali o'qituvchilarning boshqaruv, o'qitish, nazoratni amalga oshirish, kommunikativ va axborot funksiyalarini integratsiyalashda muhimdir.

F.Sh.Vapayeva tadqiqotlarida "pedagogik refleksiya predmeti sifatida individning ichki tajribasida mavjud bo'lgan bilimlar, tasavvurlar, tushunchalar, hissiyotlar, kechinmalar, munosabatlar, istaklar, qadriyatlar namoyon bo'ladi", deb hisoblaydi. Muallifning talqinicha, Agar bo'lajak o'qituvchida pedagogik refleksiya shakllanmagan bo'lsa, unda uning ichki dunyosi kasbiy faoliyatidan ajratilgan, ma'naviy yuksalishdan chekinganini anglatadi. Pedagogik refleksiyaning xususiyati ijtimoiy-ma'naviy jihatdan o'z-o'zini tahlil qilishga yo'nalganlik hisoblanadi.

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahliddinov va I.Majidovlar tomonidan refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga doir izlanishlari orqali "refleksiya samarali fikrlashning muhim tarzi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish, vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o'zini o'zi tahlil qilishi, o'z holati hamda harakatlarini faol o'ylab ko'rishdan iborat jarayon" sifatida ta'riflanadi.

"Refleksiya" va "refleksiv ko'nikmalar" tushunchalari pedagogika va psixologiya


sohalarida keng qo'llaniladigan muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Mazkur tushuncha tanqidiy qarash va o'zgarishlarga erishish jarayonini ifodalaydi. Refleksiya, shubhasiz, shaxsning o'z xulq-atvori, bilimlari va tajribalarini tahlil qilish, shuningdek, bilim olish va rivojlanish jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya sohasida refleksiyaning o'rganilishi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir, shuningdek, shaxsning ma'naviy va intellektual rivojlanishi natijasida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, fikr yuritish jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishni anglatgan (Dekart) Sokrat, Platon, Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyani insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi. Kant, Gegel, Fichte, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaragan. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning inson o'tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog'liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi.

Bugungi kunda refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta'rifdan boshqasiga o'tish imkoniyatini beradigan metod sifatida; ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash orqali nisbatlash o'lchovi ustidan nazorat ta'minlanishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, refleksiya muammosi nafaqat psixologiya, balki boshqa fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Biz bu tushunchaning talqiniga pedagogik jihatdan yondashamiz (V.V.Krayevskiy, Ya.S.Turbovskoy va boshqalar). Mazkur holatda kasbiy refleksiyaning rivojlanishini ta'minlovchi ma'lum sharoitlar, vaziyatlarni yaratishning va oqibatda, shaxsning faoliyati xususiyatlariga bog'liq uning refleksiv sifatlarini shakllantirish zarurati to'g'risidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Refleksiya turlari (I.N.Semyonov)

intellektual refleksiya: muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi; shaxsiy refleksiya: o'qituvchining pedagogik ziddiyatlardan konfliktlarsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi; kommunikativ refleksiya: muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi; kooperativ refleksiya: jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir; kasbiy refleksiya: bu mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi va shu asosda o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan fikrlash jarayonidir.

Kasbiy pedagogik tayyorgarlikda refleksiya jarayonini o'rganib, ko'pgina olimlar uning kommunikativ va hamkorlikdagi turlarini afzal ko'rib, aynan ular pedagogik tayyorgarlikda va muloqotda eng yorqin namoyon bo'ladi deb hisoblaydilar (V.A.Krivosheyev, G.P. Shedrovitskiy va boshqalar). Ammo biz pedagogik tayyorgarlik xususiyatlariga ko'ra refleksiyaning har bir turini alohida ko'ra olmaymiz, chunki mazkur holatda ular bir-biriga bog'liq bo'ladi. Refleksiv qobiliyat bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu holda, deb yozadi Yu.N.Kulyutkin, o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo'lishi kerak.

Refleksiv ko'nikmasiz, bo'lajak o'qituvchilar doimiy tahlil va o'z-o'zini tahlil qilmasdan amaliy va nazariy pedagogik tayyorgarlikda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chuqur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishni hamda olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiyalashi mumkin emas.

I.P.Rachenkoning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning o'zi to'g'risidagi, o'z shaxsi to'g'risidagi tasavvuri, ijobiy Men-konsepsiyani shakllantirish ko'nikmasi uning ijodiy faolligini muvaffaqiyatli rivojlantirishning kafolati hisoblanadi.

Men bu fikrga qo'shilgan holda, zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu konsepsiyani nafaqat shaxsiy ong darajasida, balki kasbiy refleksiv tajriba asosida shakllantirish zarur, degan xulosaga kelaman. Zero, "Men-konsepsiya" faqat ijobiy tasavvurlar majmui bo'lishi emas, balki o'z-o'zini tanqidiy baholash, imkoniyat va zaif jihatlarni real aniqlash orqali takomillashuvga yo'naltirilgan ichki motivatsiyani uyg'otuvchi psixologik asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Shuning uchun, bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'sishi ijobiy "Men-konsepsiyasi" bilan bir qatorda, reflektiv tafakkur bilan uyg'unlashgan holda yuzaga chiqmog'i zarur.

V.P. Simonov tomonidan ilgari surilgan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyati to'g'ri tashkil etilmaganda ularning tashabbuskorligi va mustaqilligini so'ndirish xavfi mavjudligi haqidagi fikr, ta'lim jarayonida pedagog shaxsining ichki faolligini rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi. Men bu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlagan holda, kasbiy tayyorgarlik jarayonida har bir bo'lajak o'qituvchining o'z harakatlari va qarorlarini reflektiv tahlil qilish, ularni asosli ravishda baholay olish salohiyatini shakllantirish alohida ahamiyatga ega, deb hisoblayman. Demak, o'z faoliyatiga nisbatan "ishonchli va isbotli" pozitsiyadan yondasha oladigan o'qituvchini shakllantirish zamonaviy ta'lim talabidir.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini

takomillashtirishning metodik tizimi” deb nomlangan ikkinchi bobida Pedagogik mahorat fani asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari, Pedagogik mahorat fanini o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli va uning mazmuni, Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini o‘qitish jarayonida refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi bayon qilingan.

Tadqiqotdan asosiy ko‘zda tutilgan maqsadlardan biri bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishida kasbiy refleksiyaning ahamiyati asosida bugungi bo‘lajak o‘qituvchilarning faoliyatida ta‘lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini o‘zlari baholab, kelajak faoliyati haqida tavsiyalar berishdan iboratdir.


Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu ularning o‘z ta‘lim faoliyati, pedagogik qaror va amaliyotlarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ichki mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantirishdir. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish “Pedagogik mahorat” fani orqali amalga oshiriladi.

Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish tuzilmasi o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirishga imkon beruvchi bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topgan.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarga xos pedagogik tayyorgarlikka ega mutaxassis pedagogik odobiga, mas’uliyatiga va burchiga ega bo‘lgan, pedagogik jarayonning ehtiyojlarini ob’ektiv ravishda bajarayotgan shaxsdir.

Pedagogik mahorat fanini o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, pedagogik ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘zgarishlarni aniqlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari, ta‘lim jarayonining sifatini oshirishga, shuningdek, ta‘lim oluvchilarning muvaffaqiyatini ta‘minlashga muhim hissa qo‘shadi. Shu sababli, “Pedagogik mahorat” fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va usullarni tizimli ravishda ishlab chiqish zarur. Shuningdek, mazkur jarayon nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalariga, balki uning tuzilmaviy modeliga ham funksional o‘zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqotimiz davomida “Pedagogik mahorat” fanini o‘qitish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelining vazifalari quyidagicha belgilandi: refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish; innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash; o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilishni ta‘minlash; pedagogik faoliyatni natijaviy baholashni joriy etish; bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotga ilmiy yondashuvlarni tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash; pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish.



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning modeli

Bizning tadqiqotimizda izlanishlarimiz natijasi sifatida reflektiv ko'nikmalarning rivojlanishi ko'zda tutildi, bu bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv ko'nikmalari rivojlanishining o'lchovli natijalari hisoblanadi. Bu ko'nikmalarni o'z faoliyatida qo'llash va pedagogik faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirishga yordam berishga undaydi.

Shuningdek, yangi metodikalarning ishlab chiqilishi ham tadqiqotimiz natijasi sifatida qaraladi, bu bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan yangi pedagogik metodlar, texnikalar va baholash tizimlarini ishlab chiqish, reflektiv fikrlashga o'rgatishning amaliy jihatlari va metodikalarni ishlab chiqish orqali amalga oshirildi.

